

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasining dasturiy ta'minotini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - geoinformatsion tizimlardan foydalanishni tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish; - geoinformatsion tizimlardan foydalanish bo'yicha xorijiy davlatlar qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish; - kriminogen vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq qilish (ilmiy adabiyotlar, normativ xujjatlar, statistik ma'lumotlar tahlili asosida); - milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari mutaxassislari o'rtasida ekspertlik so'rovi o'tkazish (Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalarida); - kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirishda geoinformatsion tizimlardan foydalanish bo'yicha o'quv qo'llanma ishlab chiqiladi; - kriminogen vaziyatni baholash va prognoz qilish metodikasi yaratiladi; - kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasi ishlab chiqish va tegishli ma'lumotlarni kiritish; - kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasi ishlab chiqiladi; - kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasining dasturiy ta'minoti yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.